

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN VALEOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Valeologiya talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Valeologiya

1. Valeologiya asoslari, tarixi. Valeologiya modulini boshqa ilmiy sohalar ichida tutgan o‘rni. Sog‘lom turmush tarzi va uning salomatlikni shakllantirishdagi ahamiyati;
2. Ritorika (nutqning ahamiyati). Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarda tibbiyot xodimlari etika va deontologiyasi;
3. Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari Sog‘lom va tartibli ovqatlanish madaniyatini shakllantirish;
4. Ichkilikbozlikni oqibatlari hamda uni oldini olishning chora- tadbirlari Tamaki mahsulotlarini chekishning oqibatlari hamda uni oldini olishning chora-tadbirlari;
5. Giyohvandlikni oldini olishda zamonaviy valeologik yondashuvlar. OIV/OITS muammolarini oldini olishda valeologik yondashuvlar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Valeologiya asoslari,tarixi. Valeologiya modulini boshqa ilmiy sohalar ichida tutgan o'zni. Sog'lom turmush tarzi va uning salomatlikni shakllantirishdagi ahamiyati. Salomatlik ko'rsatkichlari.	Valeologiya tibbiyotda tutgan o'rnini, valeologiya modulida qo'llaniladigan usullarni, salomatlik va sog'lom turmush tarzi tushunchasi va ahamiyatini biladi. Valeologiya tasnifi, turmush tarzi, hayot tarzi tushunchalarini biladi. Hayot darajasi ko'rsatkichlari, demografik ko'rsatkichlar, hayot tuzilishi, hayot uslubi,hayot sifati tushunchalarini tushunish. Ontogenez. Temperament. Hayot tarzi va salomatlikka ta'sir etuvchi omillar haqida bilishi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotda tutgan o'zni. Salomatlik darajalari, ko'rsatkichlari. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika. Aholining umumiy, guruhviy va populyatsion salomatligini bilish.	30%	12 ta
2	Ritorika (nutqning ahamiyati) Sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda tibbiyot xodimlari etika va deontologiyasi	Ritorika haqida tushuncha, uning turlari va xususiyatlarini bilishi. Muloqot haqida tushuncha. Muloqot turlari, darajasi va vositasi. Tibbiyotda etika va deontologiya. Tibbiyotda vrach-o'rta tibbiy xodim munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini, tibbiyotda o'rta tibbiy xodim-bemor munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini bilish. Sanitariya maorifi tushunchasi haqida bilish.	20%	8 ta
3	Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari Sog'lom va tartibli ovqatlanish madaniyatini shakllantirish	Ratsional ovqatlanish — kasallikning oldini olish omilini tushunish. Ratsional ovqatlanishning sog'liqqa ta'sirini bilish. Ratsional ovqatlanishga bo'lgan asosiy talablar, muvozanatlashgan va sog'lom ovqatning asosiy negizlari, ovqatlanish rejimi buzilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, bolalarni va homilador ayollarni ovqatlantirish, o'rta yoshdagilarni va qariyalarni ovqatlantirish. Aqliy va jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarning ovqatlanish. Ratsional ovqatlanishda milliy taomlar o'zni haqida bilish.	27,5%	11 ta

4	Ichkilikbozlikni oqibatlarini hamda uni oldini olishning chora- tadbirlari Tamaki mahsulotlarini chekishning oqibatlarini hamda uni oldini olishning chora- tadbirlari	Ichkilikbozlik – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga ichkilikbozlikning ta'sirini tushunish. Ichkilikbozlikni oldini olishning zamonaviy yo'nalishlari. Ichkilikbozlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni bilish. Ichkilikbozlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati tushunish. Aholining turli guruhlari orasida tamaki mahsulotlarini chekishning oldini olish chora- tadbirlarini, tamaki mahsulotlarini chekishni rivojlanishida turli omillarning ahamiyati tushunish. Tamaki mahsulotlarini chekish aholining salomatligiga ta'siri bilish. Tamaki mahsulotlarini chekishni oldini olishning zamonaviy yo'nalishlari va dasturlari bilish.	5%	2 ta
5	Giyohvandlikni oldini olishda zamonaviy valeologik yondashuvlar. OIV/OITS muammolarini oldini olishda valeologik yondashuvlar	Aholi salomatligiga giyohvandlikning ta'sirini tushunish. Giyohvandlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni bilish. Giyohvand moddalarni iste'mol qilishning asosiy belgilarini aniqlay olish. Giyohvandlikning rivojlanishida ijtimoiy omillarning o'rnini tahlil qila olish. Giyohvandlikka qarshi kurashda mavjud muammolarni baholay olish. Giyohvandlikning oldini olish bo'yicha profilaktika choralarini asoslay olish. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha takliflar berib bera olish. OIV/OITSni inson xulq-atvori bilan bog'liq muammo sifatida tushunish. OIV/OITSning aholi salomatligiga ta'sirini bilish. OIV/OITSning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tushunish. Kasallik rivojida ijtimoiy omillarning ahamiyatini bilish. OIV/OITSning kengayishiga olib keluvchi omillarni tahlil qila olish. OIV/OITSning oldini olishning zamonaviy yo'nalishlari va dasturlarini tushuntira olish. Profilaktika bo'yicha samarali yondashuvlar va chora-tadbirlar bo'yicha takliflar bera	17.5%	7 ta

		olish.		
--	--	--------	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.T.S Nodirov,M.T Saidova, Sh. A. Boybekov, Sh.X Kultayev Toshkent -2024 yil “Valeologiya”

2. D.D.Sharipova, N.M.Adilova, Z.SH. Kavilova “Valeologiya” Toshkent “Iqtisod-moliya” 2010